

O'ZBEK TASVIRIY SAN'ATIDA SHAMSIRO'Y HASANOVA IJODINING AHAMIYATI

Mahammadjonova Sevinch

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti Tasviriy san'at fakulteti Xattotlik
va miniatyura ta'lif yo'naliши 3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shamsiro'y Hasanovaning ijod yo'li, o'zbek rassomchilik hamda tasviriy san'atida tutgan o'rni va hayoti bayon etildi.

Kalit so'zlar: Shamsiro'y Hasanova mashhur rassom, tasviriy san'at, uning hayoti va ijodi, rasmlardagi detallar.

O'zbekistondagi mashhur rassomchilardan biri Shamsiro'y Hasanova 1917-yil Toshkentda dunyoga keladi. U ilk o'zbek ayol rassomi. Toshkent rassomlik texnikumida 1933- 1938 yillar ta'lif olgan. A.Volkov, P.Gan va boshqalardan tasviriy san'at asoslarini puxta o'rgangan. O'zbekiston davlat san'at muzeyida dastlab ekskursovod, 1945-yildan boshlab esa direktor bo'lib ishlagan.

Rassomning ijodi davomida Sharq va G'arb san'ati uslublarining uyg'unligiga ixtisoslashgan, O'rta Osiyo mshshatyura maktablari va mahobatli rassomligi an'analarini Yevropa realistik san'ati an'analari bilan uyg'unlashtirib o'ziga xos yangi plastik yechimga erishgan. Hasanova portret janrida asarlar yaratgan; "Bog-bon qiz", "Skripkachi qiz", "Avtoportret" va boshqa; o'zbek tasviriy san'atida birinchilardan natyurmort jan-rini boshlab bergen: "Koptok gul", "Xitoy chinnisi", "Mevalar" va boshqa Alisher Navoiyning 500 yilligiga tayyorgarlik davrida turmush o'rtog'i Chingiz Ahmarov bilan Navoiy teatri binosining foyesi uchun ishlangan rasmlarda ishtirop etgan. Ayniqsa tarixiy portretlari "Zebunniso begim", "Nodirabegim", "Uvaysiy", "Mutriba" va boshqalarda uning nozik sharqona uslubi o'z ifodasini topgan. Shamsiro'y Hasanovaning asarlari respublika va chet mamlakatlardagi ko'rgazmalarda namoyish etilgan va asarlari respublika muzeylarida saqlanadi.

Chaqmoq qizi, sening uchun dunyo oq mato Sehrlidir qo'lingdagi nurli mo'yqalam. Tovlanadi ranglar mavji, bo'limgay ado, Yomg'ir raqsi, gul-chechaklar, yashnagay olam. Chiziqlarda jonlanadi umr daftari Musavvira ko'zlarida umid va hayrat. Qalb titrog'i ko'chib borar mangulik sari, Ana shunday evriladi buyuk muhabbat.

Shamsiro'y yurtimizda inqilobiy to'ntarishlar-u turli siyosiy o'zgarishlar ro'y berayotgan murakkab, chigal bir davrda — Toshkentdagi ishchilar shaharchasida tug'ildi. Bu shaharchada o'sha kezlarda ko'plab usta san'atkorlar, hunarmandlar istiqomat qilganlar. Shu bois, Shamsro'y ilk bor ana shunday mu'tabar zotlar yaratgan ijod namunalarini ko'rib, tasviriy san'atga ishqqi tushgandir. Balki, mohir kashtachi bo'lgan onasining ranglar tanlash iste'dodi, ehtimol, ganch va yog'och ustasi bo'lgan otasining shakllar yasash mahorati unga meros o'tgandir. Ammo, nima bo'lganda ham, o'sha alg'ov-dalg'ovli davrlarda, o'tgan asrning o'ttizinchi yillarida ayol kishining rassom bo'lishi g'ayritabiyy hodisa, ko'pchilik uchun andozaga tushmaydigan bir hol edi. Shamsiro'y Zebunniso nomidagi to'liqsiz o'rta

maktabni tugatgach, rassom bo'lishga ahd qildi. U ota-onasidan yashirincha Toshkent badiiy bilim yurtida o'qidi. Talabalar orasida yagona bo'lgan bu o'zbek qizi boshqa millat vakillari bilan bab-baravar chizdi, kuzatdi, ijod qildi. Shamsiro'y Hasanova ilk ijodini har qanday bo'lajak rassom singari o'zi tug'ilib o'sgan makon — ko'chalar, uylar, bog'lar, xiyobonlar, bozorlar, turli kasbdagi odamlar, gullar, yil fasllari, tanish va notanish zamondoshlarini tasvirlashdan boshlagan. Yosh musavvira odatda ketma-ket, bir yo'la bir necha portret, kompozitsiya, natyurmort ustida ishlar edi. Uning asarlarida O'zbekiston quyoshida evrilgan ming bir xil rang tuslari, jilvalari ko'rindi. Hayotdan olgan turli tassurotlarini qog'ozga, matoga ko'chirdi.

Uning uchun hayotiy lavhalar ijod manbayi edi. Chaqmoq qizi, sening uchun dunyo oq mato Sehrlidir qo'lingdagi nurli mo'yqalam. Tovlanadi ranglar mavji, bo'lmagay ado, Yomg'ir raqsi, gul-chechaklar, yashnagay olam. Chiziqlarda jonlanadi umr daftari Musavvira ko'zlarida umid va hayrat. Qalb titrog'i ko'chib borar mangulik sari, Ana shunday evriladi buyuk muhabbat. Shamsiro'y yurtimizda inqilobiy to'ntarishlaru turli siyosiy o'zgarishlar ro'y berayotgan murakkab, chigal bir davrda — 1917 yilda Toshkentdagi ishchilar shaharchasida tug'ildi. Bu shaharchada o'sha kezlarda ko'plab usta san'atkorlar, hunarmandlar istiqomat qilganlar... Shu bois, Shamsro'y ilk bor ana shunday mu'tabar zotlar yaratgan ijod namunalarini ko'rib, tasviriy san'atga ishqি tushgandir. Balki, mohir kashtachi bo'lgan onasining ranglar tanlash iste'dodi, ehtimol, ganch va yog'och ustasi bo'lgan otasining shakllar yasash mahorati unga meros o'tgandir.

Ammo, nima bo'lganda ham, o'sha alg'ov-dalg'ovli davrlarda, o'tgan asrning o'ttizinchi yillarida ayol kishining rassom bo'lishi g'ayritabiyy hodisa, ko'pchilik uchun andozaga tushmaydigan bir hol edi. Shamsro'y Zebunniso nomidagi to'liqsiz o'rta maktabni tugatgach, rassom bo'lishga ahd qildi. U ota-onasidan yashirincha Toshkent badiiy bilim yurtida o'qidi. Talabalar orasida yagona bo'lgan bu o'zbek qizi boshqa millat vakillari bilan bab-baravar chizdi, kuzatdi, ijod qildi. Shamsiro'y Hasanova ilk ijodini har qanday bo'lajak rassom singari o'zi tug'ilib o'sgan makon — ko'chalar, uylar, bog'lar, xiyobonlar, bozorlar, turli kasbdagi odamlar, gullar, yil fasllari, tanish va notanish zamondoshlarini tasvirlashdan boshlagan. Yosh musavvira odatda ketma-ket, bir yo'la bir necha portret, kompozitsiya, natyurmort ustida ishlar edi.

Uning asarlarida O'zbekiston quyoshida evrilgan ming bir xil rang tuslari, jilvalari ko'rindi. Hayotdan olgan turli tassurotlarini qog'ozga, matoga ko'chirdi. Uning uchun hayotiy lavhalar ijod manbai edi. O'sha kezlarda qadimiy va navqiron Samarqandda esa badiiy maktabning o'ziga xos realistik maktabi mashhur bo'layotgan edi. Unga XX asarning buyuk rassomlaridan biri, o'tgan asarning 30-yillarida mashhur bo'lgan Pavel Ben'kov va shogirdi, ajoyib rassom Zinaida Kovalevskaya boshchilik qilardi. Shamsro'y ilmga chanqoq edi, u imkon darajasida bu ulug' rassom maktabidan ham bahramand bo'ldi. Chingiz Ahmarov keyinchalik o'zining butun ijodi davomida Sharq go'zellari timsoliga murojaat etar ekan, ularga ana shu musavvira qiz — turmush o'rtog'i Shamsro'y Hasanovani prototip qilib olgan edi. «Men Shamsiro'yning qator portretlarini ishlab ko'rganman. Alisher Navoiy nomidagi teatrga tasvir etganim obrazlarning barchasida Shamsro'ydan ilhom olganman, desam mubolag'a bo'lmaydi. Biroq shulardan eng muvaffaqiyatlisi, 1943-1944 yillarda sevib tasvir etganim — «Shirin» asarim deb hisoblagandir.

Bu rasmda Shamsro'y qiyofasi o'ychan, go'zal obraz siy whole mos tushganidan tashqari, Shirinnig qandaydir kelgusidagi baxtsizligidan ham darak berib turganday» deb yozgan edi atoqli rassom Chingiz Ahmarov. Bu ikki ijodkor olami bir-biriga juda-juda yaqin edi. Shamsro'y Chingiz Ahmarov bilan hamnafas bo'lgan, birga yashagan kezlarida rassomning ruhiy madadiga suyandi. Ijod musavviraning yashash tarziga, hayotiga aylangan edi.

Rassom Sharq shoiralari degan turkum portretlar ustida ishlay boshladi. Zebunniso, Nodira, Uvaysiy, Mutriba... Rassomning o'z polotnolaridagi qahramonlari bilan ruhiy aloqasi uning dastlabki asari – Zebunniso portreti bilanoq o'rnatildi. Bir paytlar Zebunniso nomidagi maktabda o'qigan musavvira uning obrazida o'z qiyofasini ko'rdi, uni yurakdan his qildi. Shamsiro'y Sharq she'riyatining chinakam maftuni edi.

U o'zbek shoiralari tarixi bilan qiziqar ekan, ularning portretlarini yaratishga bel bog'ladi. Ishdan sal vaqt topishi bilan ularning obrazi ustida etyudlar ishlashga o'tirar edi. Nodira... Bu portretda u Nodirani nafaqat taxt malikasi, balki nafosat, oqilalik go'zallik ma'budasi sifatida tarannum eta oldi. Uvaysiy portreti Nodira portretidan so'ng bir yil o'tib, 1947 yilda ishlandi. Unda biz oliymaqom zot ayollariga xos viqor, jiddiy nigoh, musibatlarni iroda kuchi bilan yenggan matonatli bir timsolni ko'ramiz. 1947 yilda yaratilgan «Mutriba» asari uyg'ur xalqining sevimli shoirasini hayotiga bag'ishlangan. Uning merosini o'rgangan Shamsro'y bu dilbar shoiraning xalqona she'riyati maftuni bo'ldi. Rassom shoirani o'zining milliy libosida, qalbi olovlangan, tafakkuri o'tkir shoira sifatida ko'rdi, portretini yaratishda ana shu xislatlarni tasvirga joyladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Komilova R, G'afforova F, Tanlangan asarlar, Birinchi jild, Toshkent. 1996.
2. Rassomchilik, Dilmurodov G, Toshkent. 2001.
3. O'zME, Ikkinci jild, Toshkent, 2002.